



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 18-noyabr, seshanba,
131 (24.161)-son

**O'zbek xalq
maqoli**

Yer - ona,
suv - ota,
mehnat -
boylik

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



Ming dardga davo ne'mat

Toyloq tumanidagi "Darg'om o'rmon xo'jaligi" hududida asalarichilik festivali bo'lib o'tdi. Unda asal mahsulotlari namoyish etilib, tabiiy asal, propolis tayyorlanish jarayoni, sifat ko'rsatkichlari va foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar berildi.



Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev festivaldan maqsad asalarichilik sohasini qo'llab-quvvatlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, hududning turizm salohiyatini keng jamoatchilikka tanitish hamda ekologik toza mahsulotlarni targ'ib qilishdan iborat ekanligini ta'kidladi.

- Asalarichilik bilan shug'ullanganimizga qirq yildan oshdi, - dedi festival ishtirokchisi Ma'ruf To'raqulov. - 100 dan ortiq asarlari oilamiz bor. Yiliga 3-4 tonnagacha asal, asallari suti, propolisi, gul changi kabi mahsulotlari olamiz. Ular ko'p kasalliklarga davo. Shuningdek, ari zahri ham asab tizimi kasalliklariga shifo bo'ladi. Asalarichilik bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlarga asallari oilalarini yetkazib beryapmiz.

Festival davomida viloyatda asalarichilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan seminar tashkil etildi. Unda tajribali asalarichilar hamda mutaxassislar sohaning bugungi holati, istiqbollari va innovatsion yondashuvlarini muhokama qildi.

Tadbirida "Orzu Olim Dilmurod asallari" asalarichilik-naslchilik fermer xo'jaligi rahbari Orifjon Ilyosovga Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligidan

ro'yxatdan o'tkazilgan "Orif bobo asallari" tovar belgisi topshirildi. Tumanda ko'p yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan mazkur fermer xo'jaligi tizimidagi eng yirik xo'jaliklardan hisoblanadi. Bugungi kunda xo'jalik tasarrufida 500 asallari oilasi bo'lib, bir mavsumda 10 tonnadan ortiq asal yetishtiradi.

Festival doirasida asal ko'rgazmasi, bolalar uchun "Men asallari rasmini chizaman" musobaqasi, hunarmandlar yarmarkasi, milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi ko'rgazmalar tashkil etildi.

Respublikamiz va viloyati-mizning turli hududlaridan kelgan eng faol asalarichilar, "Obodlik ko'ngildan boshlanadi" tashabbusi doirasidagi "Eng obod mahalla" va "Eng obod tashkilot" tanlovlari g'oliblariga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

Shuningdek, tadbirida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chatlar ko'rgazmasi tashkil qilinib, ushbu hududdagi 1 gektar maydonda "Yoshlar bog'i" tashkil etildi.

Tadbirida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining birinchi o'rinbosari Obidjon Qudratov ishtirok etdi.

Baxtiyor MUSTANOV.

Bayroq eski turkiycha atama bo'lib, bundan ming yillar avval ham aynan shu ma'noda qo'llangan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu nom qadimgi turkchada baziraq, badiroq, batiroq tarzida ham qo'llangan. Ya'ni, bayroq biror el-ulus, qavmning erkinlik belgisi bo'lib, u baland joylarga, hukmdorlar chodiriga o'rnatib, sanchib (botirib) qo'yilgan. Uni tug', yalov, sanchiq (sanjoq) nomlari bilan ham ataganlar.

Tariximizda hukm surgan turli sulolalar, davlatlar ham o'z bayroqlariga ega bo'lgan. Masalan, qadimgi Ko'kturk hoqonligi, Amir Temur davlati bayrog'i moviy, qadimgi ajdodlarimiz bo'lgan xunlarning bayrog'i oq, g'aznaviylar davlati, Qo'qon xonligi bayroqlari yashil, Turkiston muxtoriyati bayrog'i ko'k va qizil ranglarda edi. Binobarin, bayrog'imizni qabul qilishda, unda muayyan ranglarni belgilashda tarixiy an'analarimizga urg'u berilgan.

DAVLATIMIZ BAYROG'I XALQARO MAYDONDA

1991-yil 18-noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan va shu kundan e'tiboran O'zbekiston hududida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i mustaqil-



lik, hurlik, barqarorlik timsoli sifatida baland ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart kuni Yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlar va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashkilot — Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan. Ayni shu sanadan boshlab O'zbekiston bayrog'i BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohi oldida, nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va davlatlarning bayroqlari qatorida ko'tarilgan va doim hilpiramoqda.

BAYROG'IMIZ TASVIRI TUSHIRILGAN MILLIY HAVO KEMASI ILK BOR MAMLAKATDAN TASHQARIDA QAYERGA UCHGAN?

1992-yilda Birinchi Prezident Islom Karimov farmoni bilan «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. Ilk parvozlar mamlakat ichida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinroq «Toshkent-London» yo'nalishi bo'yicha birinchi reys yo'lga qo'yildi. Ushbu parvozlarni amalga oshirgan milliy havo kemalarimizda O'zbekiston bayrog'i tasviri tushirilgan.

(Davomi 4-sahifada) >>>

“Hali biror bemorimni viloyatga jo'natmadim”



egallamasin, garchi juda ko'p aytilgan xulosalar bo'lsa-da, bilim va intilish bor ekan, maqsad yo'lidagi har qanday to'siqlar cho't emas.

TANLOV TANLOVDAN KEYIN

Asli Qashqadaryoning Kitob tumanidanmiz. Oilamizda to'qqiz nafar farzand bo'lsak, barchamiz oliy ma'lumotli bo'lganmiz, men sakkizinchi farzandman. Otam iqtisodchi, onam o'qituvchi bo'lganlar. Ta'lim-tarbiyamizga onam juda ko'p e'tibor berar edilar. Biz, farzandlar maktabda hatto "4" baho olishga uyalandik. Ko'pchilik bizning bunday tirishqoqlik bilan o'qishimizni ko'rib, oilada qattiqqo'llik bor, deb o'yildir. Yo'q, unday emas. Onam nari borsa, kundalimizga qo'l qo'ymasdilar, xolos.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Shu yilning 17-noyabridan 17-dekabrigacha Samarqandda "Salomatlik marafoni" bo'lib o'tadi. Nukus shahrida boshlangan umummilliy marafon tibbiy profilaktika, kasalliklarni erta aniqlash va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan.

Salomatlik marafoni boshlandi

Samarqand davlat tibbiyot universitetida mazkur marafonning boshlanishiga bag'ishlangan tadbirida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev, Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Olim Omonov ishtirok etdi. Keng qamrovli tibbiy ko'riklar aholi salomatligini saqlash, sog'lom turmush tarziga amal qilish va tibbiy madaniyatni oshirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlandi.

- Marafon doirasida oilaviy poliklinikalar, viloyat va respublika darajasidagi yetakchi shifokorlar, shuningdek, xorijiy mutaxassislar tomonidan shahar aholisining barcha qatlami chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi, - deydi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Suhrob Zayniyev. - Tekshiruvlar yakunlari DMED yagona elektron axborot tizimiga kiritilib, kelgusida fuqarolar salomatligi doimiy monitoring asosida yuritiladi. Bu esa kasalliklarni erta aniqlash, ularning oldini olish va davolash samaradorligini oshirishga xizmat

qiladi. Marafon davomida nafaqat tibbiy ko'riklar, balki sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik va kasalliklarning oldini olish bo'yicha maslahatlar berilib, sog'lomlashtirish tadbirlari o'tkaziladi. Ushbu xizmatlar aholiga bepul ko'rsatiladi va kasallik aniqlangan fuqarolar xavflilik darajasiga ko'ra, viloyat va respublika shifoxonalarida davolanishga yuboriladi.

Tibbiy ko'riklar Samarqand shahridagi 20 ta oilaviy poliklinika, shahar tibbiyot birlashmasi va markaziy shifoxonasida tashkil etiladi.

F.R.O'ZIBOYEV.



Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Samarqandda



Samarqand xalqaro aeroportida bank prezidenti Masato Kanda boshchiligidagi delegatsiya vakillarini viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev kutib oldi.

2026-yilning 3-6-may kunlari Samarqand shahri Osiyo taraqqiyot banki (OTB)ning 59-yillik yig'ilishiga mezbonlik qiladi. Unda bankka a'zo 69 davlatning bank-moliya muassasalari rahbarlari, xalqaro tashkilotlar, NNTlar va OAV vakillari ishtirok etib, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida joylashgan mamlakatlar oldida turgan rivojlanish muammolarini ko'rib chiqadi.

Masato Kanda bilan o'tkazilgan muloqotda Adiz Boboyev OTBning yillik yig'ilishining Samarqandda o'tkazilayotganidan mamnun ekanligini aytib, ushbu nufuzli tadbirni yuqori darajada o'tkazish uchun zarur choralar ko'rilayotganligini bildirdi.

Masato Kanda boshchiligidagi OTB vakillari yig'ilish bo'lib o'tadigan obyektlar, ulardagi shart-sharoitlar va tarixiy obidalar bilan tanishdi.



Deputat minbari



Prezidentimiz joriy yil 19-iyunda yangi farmon qabul qildi. Bu hujjat bilan davlat xizmatchilari faoliyatida professionallik, halollik va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan yangi tizim yo'lga qo'yiladi. Ya'ni, O'zbekistonda davlat xizmatini yangicha tartibda tashkil etish bo'yicha katta qadam qo'yildi. Oddiy aytganda, bu farmon davlat xizmatida "eski odatlar" bilan xayrlashib, zamonaviy, ochiq va natijaga qaragan tizimni yaratishni ko'zlaydi.

Davlat xizmatida yangi davr:
endi ishga

“tanish-bilish”

emas, bilim bilan
kiriladi



NEGA BU O'ZGARISH KERAK EDI?

Hamma bilgan haqiqat: ba'zan davlat idoralarida ish yuritish cho'zilib ketadi, ayrim xodimlar mas'uliyatsizlik qiladi, kimdir lavozimga bilim emas, tanish orqali chiqib oladi. Shunday holatlar davlatga ham, xalqqa ham zarar. Shuning uchun endi davlat xizmatiga kirishda tanlov va adolat asosiy mezon bo'ladi. Hech kim "tavsiya bilan" ishga kira olmaydi, faqat bilim va qobiliyati bilan.

YANGI TIZIM NIMA BERADI?

Farmonda xalq uchun yaqqol his etiladigan bir nechta yangiliklar bor. Jumladan, har bir davlat idorasida bo'sh ish o'rni ochiq e'lon qilinadi. Har kim onlayn tizim orqali hujjat topshira oladi. Tanlov va testlar shaffof tarzda, maxsus kuzatuv tizimi orqali o'tkaziladi.

DAVLAT XIZMATCHILARI DOIM O'QIB TURADI

Ishga kirgan odam "bir umr shu bilim bilan ishlab ketadi" degan zamon o'tdi. Endi har bir xizmatchi malakasini oshirib borishi shart. Ular uchun akademiya, malaka kurslari, xorijiy stajirovkalar tashkil etiladi.

AYOLLAR UCHUN KENG IMKONIYATLAR

Farmonda xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash va ular uchun qulay sharoitlar yaratishga katta ahamiyat berilgan. Endi davlat idoralarida ayol rahbarlar soni sezilarli ko'payishi kutilmoqda.

RAQAMLASHTIRISH — SHAFFOFLIK GAROVI

Barcha jarayonlar — qabul, baholash, rag'batlantirish raqamli platforma orqali amalga oshiriladi. Bu tizim odamlar orasidagi ta'sirni cheklaydi va halollikni ta'minlaydi.

YAXSHI ISHLAGAN RAG'BATLANTIRILADI

Endilikda faqat ishga kelib ketish emas, natija ham muhim. Kim yaxshi ishlasa, uning mehnati mukofotlanadi — maosh qo'shimchalari, malaka oshirish imkonlari, lavozim o'sishi kabi yo'llar bilan.

YANGI AVLOD RAHBARLARI

Farmon asosida "TOP-100" dasturi yo'lga qo'yiladi. Bu dastur orqali eng iqtidorli va tashabbuskor xizmatchilar tanlab olinadi. Ular maxsus o'quv kurslariga yuboriladi, xorijda tajriba orttiradi, keyinchalik yetakchi rahbarlar qatoriga kiradi. Ya'ni, davlat boshqaruviga zamonaviy fikrlaydigan, bilimlil yoshlar kelishi uchun yo'l ochiladi.

KORRUPSIYAGA QARSHI QAT'IY NAZORAT

Farmonning muhim jihatlari biri — halollik va shaffoflik. Davlat xizmatchilari va rahbarlar korruptsiya xavfiga nisbatan maxsus baholashdan o'tadi. Ular haqidagi ma'lumotlar ochiq bo'ladi, faoliyati doim nazoratda bo'ladi. Bu orqali "ishni pul bilan hal qilish" yoki "tanish bilan kirish" kabi illatlarga chek qo'yiladi.

DAVLAT XIZMATCHISI — EL XIZMATIDA

Eng asosiysi davlat xizmatchisining imiji o'zgaradi. Farmonga ko'ra, xizmatchilar uchun qulay ish sharoiti yaratiladi, ularning oilasi va sog'lig'iga ham e'tibor qaratiladi. Har yili "Davlat xizmatchilari kuni" nishonlanadi, faxriylar e'zozlanadi. Bu nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki davlat xizmatini obro'li kasbga aylantiradi.

XULOSA

Yangi farmon davlat xizmatiga yangi ruh, yangi mazmun olib kirmoqda. Endi bu tizimda ishlash faqat ish joyi emas, balki xalqqa xizmat qilish mas'uliyati hisoblanadi. Davlat xizmatchisi endi qo'rquv yoki buyruq bilan emas, ishonch va bilim bilan ishlaydigan shaxs bo'lishi kerak. Ana shunda xalq ham, davlat ham yutqazmaydi.

Elyor ULUG'MURODOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.



Urgutning yaqin kelajakdagi yuzi bo'lishi kutilayotgan tumandagi «Yangi O'zbekiston» massivida 2022-2026-yillarda qariyb 40 gektar maydonda 58 ta ko'p qavatli uy-joy, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa inshootlar qurilishi rejalashtirilgan.

Joriy yilda 831 ta xonadonli 14 ta ko'p qavatli uy qurib foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan. Ammo o'tgan yillarda qurilishi kech qolgan yoki sust ishlagan qurilish korxonalari tomonidan massivdagi 2361 ta xonadonli 38 ta turarjoyda ishlar davom ettirilmogda. Hozirgacha 204 xonadonli 3 ta ko'p qavatli uy-joy foydalanishga topshirilgan bo'lsa, tez orada yana bitta 9 qavatli uy-joyga aholi ko'chib kiradi. Massivda qurilayotgan ko'p qavatli uylarning tashqi qismiga bazalt tolali qoplamalar yopishtirilib, tomiga —o'rtacha 20-25 kVt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega quyosh panellari, bittadan quyosh kollektori o'rnatilmoqda.

Ma'lumotlarda barcha bunyodkorlik ishlari rejadagidek ketayotgani ko'rinadi. Xo'sh, aslida-chi? Bugungi kunda barchaning diqqat-e'tibori bunyod etilayotgan massivlarga qaratilgan bir vaqtda, ularning o'z vaqtida foydalanishga topshirilmayotgani sababi nimada? Kamiga tayyor, yashash mumkin deb ko'rsatilgan xonadonlarda kadastr hujjatlarining yo'qligi, oddiy sanitariya-gigiyena sharoitlarining yo'qligi aholining e'tirozlariga sabab bo'layotganini nima bilan izhlash mumkin?

To'g'ri, ikki yildan buyon tenderda g'olib bo'lib, uy-joy qurishni zimmasiga olgan ayrim qurilish korxonalari bilan tuzilgan shartnomalar bekor qilinib, obyektlar boshqa quruvchilarga berilgani ham sabablardan biri bo'lishi mumkin.

- Massivda 2 ta maktab, 4 ta bolalar bog'chasi, davlat va xususiy poliklinikalar quriladi, - deydi «Afrosiyob-Marqand» boshqaruv servis kompaniyasi boshlig'i Aziz



Jamolov. - Hozirda bittadan maktab va bog'cha foydalanishga topshirilgan. Bundan tashqari, maishiy xizmat obyektlari, savdo markazi,

«Yangi O'zbekiston»:

qurilishlar nega ortda qolyapti?



hammom, ekobozor quriladi. Foydalanishga topshirilgan 18 ta ko'p qavatli uylarda to'liq kommunikatsiya tizimlari yaratilgan. Massivda birinchi bosqichda foydalanishga topshirilgan uylar alohida isitish tizimiga ulangan bo'lsa, bosh rejaiga o'zgartirish kiritilib, keyingi yillarda qurilayotgan uylarda isitish tizimi joriy etiladi.

Ayni vaqtda 16 ko'p qavatli uy va 1 ta umumta'lim maktab markazlashgan holda isitilmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, issiqlik tarqatuvchi punktlari (ITP)ga quvvati kam bo'lgan motorlar o'rnatilgani sababli xonadonlardagi isitish radiatorlariga suv yetkazib berilmagan ekan. Ayrim uylarda esa 6-qavatdagi xonadonlarga suv isitilgan, xolos. Shuningdek, o'tgan yili faqatgina 3 ta ko'p qavatli uy-joylarning suv uzatish moslamasi ishlagan bo'lsa, bu yil ularga 3 ta qo'shildi. Bu esa yetarli bo'lmadi.

- Ayni vaqtda 16 ta ko'p qavatli uyga 9 ta issiqlik tarqatuvchi punkt

ruvchilar tomonidan 9 uyingin ITPlari noto'g'ri o'rnatilgani sababli uylarga issiqlik yetib bormagan. Shuningdek, bitta qozonxonada yetarlicha tabiiy gaz ta'minoti berilmaganligi tufayli mazkur obyekt ko'ngildagidek ishlatilmadi. Markaziy qozonxonaga ulanishi lozim bo'lgan bir nechta uyda yashovchilar esa noqonuniy tarzda gaz quvurlari tortib, ikki konturli pechlardan foydalanishgan.

Yana bir gap. Quruvchilar tomonidan bir qator uylarning kadastr hujjatlari qilinmagan. Biroq mazkur xonadonlarda aholi yashamoqda. Masalan, «Qurilishinvest» MChJ tomonidan qurilgan 4 ta ko'p qavatli uydagi 80 ta xonadonga kadastr hujjatlari berilmagan. Massivning qurilish ishlari tugallangan qismini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari ko'ngildagidek emas. Ayrim ko'cha va yo'llar ensiz asfalt qilinganidan qarama-qarshi kelgan mashinalarning biri to'xtab turishiga to'g'ri keladi.

- Uyingin foydalanishga topshirilganiga 2-3 yil o'tgan bo'lsa-da, hanuzgacha kadastr yo'q, -deydi B.Boboyorov. - Suvqova, elektr energiyasi, toza suv va boshqa tarmoqlar me'yorida ishlaydi. Issiqlik tizimi yo'qligidan ikki konturli pechdan foydalanamiz. Eng qizig'i, quruvchilar birorta xonadonga dudburon o'rnatmay ketishgan. Xonalarimiz shiftlari namlik yuqoriligidan mog'orlab ketgan. Quruvchilar hatto yerto'laning shamollatish tizimini ham noto'g'ri o'rnatgan shekilli, doim oqova suvga to'la bo'ladi. Shundan namlik yuqori qavatlariga cha ko'tarilib bormoqda.

Uylarga raqamlar berilmagan, aholi qaysi uy va xonadonda yashashini aytib berolmaydi. Yo'l chetidagi kanalizatsiya quduqlarining qopqoqlari yo'qligidan turli maishiy chiqindilar bilan to'lgan.

O'rganildi – o'zibo'larchilik



«Yangi O'zbekiston»ning asosiy muammolaridan biri — O'ramas mahallasida bunyod etilayotgan, bugungi kunda «tuya go'shti yegan» zamonaviy oqova tozalash inshooti qurilishi kechga qolayotganidir. Shu paytgacha tumanning Mirzaqishloq mahallasida joylashgan bir kunda 1 ming kub hajmdagi oqovani tozalovchi inshoot 18 ta ko'p qavatli uyda yashovchi aholiga xizmat qilib kelgan. Uning chala tozalangan suvi esa Yangiariq kanaliga tashlangan. Endi uylar soni 52 taga yetkazilib, tizimdan foydalanuvchilar soni ko'paygan sari mazkur inshootning kuchi yetmay qolyapti. Shu sababdan 3 yil ilgari 9 kilometr uzoqlikdagi O'ramas mahallasi hududidagi 3,30 gektar maydonda zamonaviy suvoqova tozalash inshooti qurilishi boshlangandi. Qurilish ishlari «Ishonch-injenering» MChJ tomonidan olib borilib, dastlab loyiha



qiymati 46 milliard so'm bo'lgan edi. Endi quruvchilar loyihada o'zgarishlar qilgach, ishlarni to'liq yakunlash uchun yana 16 milliard so'm zarur.

- Agar mazkur inshoot ishga tushirilsa, viloyatda yagona bo'ladi, - deydi «Suv ta'minot» AJ Urgut tuman bo'limi mutaxassisi Yashin Qarshiyev. - Oltita yopiq tozalash hovuziga o'rnatilgan uskunalar yordamida kuniga 10 ming kub hajmdagi suvni tozalash imkoniyati bor. Ayni vaqtda Mirzaqishloqdagi kichik inshootdan to bu yergacha qariyb 11,8 kilometr masofaga yerosti oqova tarmog'i tortib kelindi.

Biroq inshoot joriy yilning may oyida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, hozirgacha 70-75 foiz ishlar bajarilgan. Turli sabablar bilan belgilangan muddatdan ham 7 oy o'tib ketibdi. Xorijdan kelishi lozim bo'lgan yirik qozonlar hali kelgani yo'q.



Dilmurod TO'XTAYEV,
«Zarafshon» muxbiri.
Baxtiyor MUSTANOV
olgan suratlar.

“Hali biror bemorimni viloyatga jo‘natmadim”

qo'llab-quvvatlashi kasbimni hech bir qiyinchiliksiz amalga oshirishga imkon berdi. O'zlari maktabda ishlardilar, lekin kelinim uzoqdan tushgan, bu yerlarni bilmaydi, deya meni ishga, chaqirqlarga o'z mashinasida eltib qo'yardilar. Turmush o'rtog'im ham shifokor bo'lgani uchun bir-birimizni tushungan holda ishlaganmiz. Keyinroq tuman markaziga ko'chib o'tdik va yerdan Nurobod tuman tibbiyot birlashmasining shoshilinch tez tibbiy yordam bolalar bo'limida ish boshladim.

UCHTA ODDIY TAHLIL

Faoliyatimga qariyb o'ttiz yil bo'lsa, hali biror marta bemorimni viloyat yo'poytaxtga jo'natmadim. Viloyatdagi ustozlarim bilan maslahatlashgan paytlarim bo'ladi, ularning yo'l-yo'riqlarini olaman va o'zimning shifoxonada davolashga harakat qilaman. Hatto og'ir holatdagi bemor bolajonlarni ham.

To'g'ri, ish boshlagan yillarim tuman tibbiyot birlashmasida sharoit hozirgiday emas edi. Zamonaviy tashxis apparatlari, dori-darmonlar ko'paydi. Ammo yaxshi shifokor zamonaviy uskunalarsiz ham, asosiy uchta belgi bilan unga tashxis qo'yib, davolay olishi kerak. Ehtimol, zamonaviy diagnostika mavjud bo'lmagan yillar tizimsiz ishlaganimiz uchun shunday ko'nikma shakllangandir. Dori-darmonni ko'p ishlatmaganman hech qachon. Eng og'ir holatdagi bemorlargagina uch-to'rt xil em dori tavsiya qilaman. Hammasi me'yorida bo'lishi kerak. Yosh organizmga ko'p dori-darmon qilishga doim qarshi

bo'lganman.

Har qanday holatda ham shifokor bemorini qalban his qilishi kerak. Bir kunda 50-60 nafargacha bemor bolalarni qabul qilaman ba'zida. Bu'limning o'zida 50 nafar bola bo'ladi, ularni har kuni bir marotaba bo'lsayam nazorat qilib chiqaman.

KASBING HAYOT TARZINGGA AYLANGANDA

Bunday ishlash og'irlik qilmaydimi, deyishadi ko'pincha. Yo'q, shifokorlik hayoting mazmuniga aylangan bo'lsa, og'irlik qilmaydi. Qolaversa, onaman, bolalarning kasal bo'lishiga chidab qarab turolmayman, tezroq davolashni istayman. Bu istak maqsadimga evrilib ketadi.

FAXR

Bugun tibbiyot xodimlari katta bir islohotlar, o'zgarishlar ichida yashayapti. Mamlakatimiz rahbari qo'lidan davlatimizning yuksak ordenini olarkanman, ko'nglimdan shu tuyg'ular o'tdi. Bayram tadbirlaridan so'ng mamlakatimiz rahbari tibbiyot xodimlari bilan yig'ilish o'tkazdi. Unda tibbiyot xodimlariga ulkan ishonch bildirilishi barobarida katta mas'uliyat, ya'ni xalq bilan davlat orasida juda muhim ko'priki ekanini, bu masalada har qanday arzimaz xato ham nafaqat og' xalatlari fidoiylar, balki butun jamiyat zimmasiga tushayotgani aytiladi. Bu yo'lda endilikda yanada bir katta ruh bilan ishlay olishimizga ishonaman.

Nodira BOTIROVA yozib oldi.

Har bir davlat sog'lom oila, sog'lom onalik va bolalikni ta'minlashni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Biroq bugungi kunda ham ayrim hududlarda erta turmush qurish yoki yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish kabi holatlar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, chekka qishloqlarda bu holat hali ham "urf-odat" yoki "taqdir yozuvi" sifatida qabul qilinadi. Aslida bu an'analar nafaqat oilalarning baxtiga, balki millat genofondiga, ya'ni kelajak avlodning sog'lomligi va ruhiiy barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Chunki erta yoshdagi nikoh yoki qarindoshlar o'rtasidagi turmush oilaviy munosabatlarda barqarorlikni buzadi, sog'lom bolalar tug'ilish ehtimolining kamayishiga olib keladi.

Shuningdek, bunday nikohlar ko'p hollarda qashshoqlik, savodsizlik va jinsiy tengsizlik ildizlari bilan ham bog'liq. Demak, muammoning yechimi tibbiy cheklanish bi-langina emas, balki ma'rifat, ta'lim, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va huquqiy kafolatlar orqali hal etilishi zarur.

Erta nikoh - bu qonunan belgilangan yoshga yetmasdan turmush qurish. Qarindoshlar nikohi esa qon-qardoshlik aloqasi mavjud bo'lgan shaxslar o'rtasida tuziladigan nikoh. Erta yoshdagi homiladorlik organizmning hali to'liq shakllanmaganligi sababli ona va chaqaloq salomatligi uchun jiddiy asoratlar keltirib chiqaradi. Qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilganda, genetik kasalliklar va tug'ma nuqsonlar ehtimoli keskin oshadi.

Misol uchun, erta turmush qurgan

Millat genofondiga tahdid

qizlarda ko'pincha o'qishga hafsalasizlik kuzatiladi. Oqibatda ularning kasbiy malakasi shakllanmaydi, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi pasayadi, kelajakda oilani moddiy ta'minlash imkoniyati cheklanadi. Qolaversa, ularda iqtisodiy yuklama kuchayadi. Qarindoshlarning nikohida tug'ma kasalliklar bilan tug'ilgan bolalar soni ortib borgan sari sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan xarajatlar ortib, davlat budgetiga qo'shimcha bosim yuzaga keladi. Ushbu omillar sabab ijtimoiy adolat muammosi yuzaga keladi, bolalar huquqlari buziladi, ularning ta'lim olish va erkin hayot qurish imkoniyatlari cheklanadi. Bu holat jamiyatda teng imkoniyatlar tamoyiliga zid bo'lib, kelgusi avlodda ijtimoiy tengsizlik va kambag'allik xavfini kuchaytiradi.

Shuning uchun bu masala faqat oilaviy emas, balki umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb ijtimoiy muammo sifatida yechim talab etadi.

Biologik va tibbiy jihatdan ham qarindoshlar o'rtasidagi nikohda bir xil retsessiv (chekinish, olib tashlash) genlari birlashish ehtimoli katta bo'ladi. Agar har ikki tomon nosog'lom gen tashuvchisi bo'lsa, farzandda ushbu kasallik namoyon bo'lishi xavfi keskin ortadi. Bunda ayniqsa, qon kasalliklari, nutq va eshitis nuqsonlari, aqliy rivojlanishda kechikish kabi holatlar kuzatiladi.

Erta homiladorlik kamqonlik, yuqori qon bosimi, past vaznli chaqaloq tug'ilishi va perinatal asoratlar xavfini oshiradi. Bu nafaqat onaning salomatligiga, balki chaqaloqning sog'lom o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kuzatuvlarimizga ko'ra, erta nikohlar olis qishloqlarda, ijtimoiy imkoniyatlar cheklangan aholi punktlarida uchraydi. Bu hududlararo taraqqiyot tafovutlarini kuchaytirib, inson kap-

itali darajasini ham pasaytirmoqda.

Shuning uchun erta va qarindoshlar nikohining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan tizimli profilaktika ishlarini amalga oshirishga to'g'ri keladi. Bu boradagi chora-tadbirlar faqat tibbiy nuqtai nazardangina emas, balki ma'rifiy, iqtisodiy va huquqiy yo'nalishlarda ham amalga oshirilishi lozim.

Avvalo, maktab va texnikumlarda sog'lom oila qurish, genetik xavflar, nikoh huquqshunosligi hamda onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari bo'yicha darslar joriy etilishi maqsadga muvofiq. To'y oldidan DNK tahlillari va genetik maslahat xizmatlari ixtiyoriy asosda tashkil etilib, ular inson sha'nini hurmat qilgan holda amalga oshirilsa, turli irsiy kasalliklarning oldi olinadi.

Eng samarali chora qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Bu yo'nalishda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Bu tashabbuslarni amalga oshirishga keng targ'ib etish kerak, xolos.

Erta yoki majburiy nikoh holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish uchun ishonch telefonlari, himoya orderlari va maktab psixologlari orqali tezkor xabar berish tizimini joriy etish talab etiladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, ma'rifat, tibbiy profilaktika va huquqiy kafolatlar uyg'unligidagina sog'lom, bilimli va baxtli avlod, millat genofondining mustahkam kafolati yaratiladi.

Gulnora SHODIYEVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori.
Shoira XUSENOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti.

Konsulxonadagi uchrashuv



“Turkiyadagi o'zbek muhojir ayollariga ham yordam berish imkonimiz bor”

Turkiyaning Samarqanddagi Bosh konsulxonasida Turkiyaning Ayollar va demokratiya fondi boshqaruvi kengashi a'zosi Sevim Zehra Kayya va viloyat hokimi o'rinbosari Zebo Saidova boshchiligidagi xotin-qizlar uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ikki davlat vakillari o'z mamlakatida xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi, ularni ish bilan ta'minlash, maishiy zo'ravonlikdan himoya qilish masalalarida olib borilayotgan ishlar bo'yicha fikr almashdilar.

- Idoramizda ikki davlatning xotin-qizlar ijtimoiy himoyasiga mas'ul xonimlar uchrashuvi o'tkazilayotganing o'ziga xos ma'nosi bor, - dedi Turkiyaning Samarqanddagi bosh konsuli Serdar Deniz. - Chunki ikki davlatning ham bu masalada qarashlari mushtarak. Turkiyada 2025-yil Oila yili, deya e'lon qilingani tufayli oilalarga qator imtiyozlar berilmoqda, muqaddas makon mustahkamligi yo'lida yangi tashabbuslar ilgari surilmoqda. O'zbekistonda ham shunday jaryonni kuzatmoqdamiz.

- Fondimiz nodavlat, notijorat tashkiloti bo'lib, Turkiyaning 55 hududida o'z vakilliklariga ega, - deydi KADEM tashkiloti boshqaruvi kengashi a'zosi Sevim Zehra Kayya. - O'n yildan beri faoliyat ko'rsatamiz. Faoliyatimiz davomida asosan xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha suhbatlar olib boramiz. Shuningdek, ularga amaliy yordam beramiz. Xususan, zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga ko'ngilli advokatlar yollashda ko'maklashamiz. Barcha jamoat tashkilotlari singari ayollarga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordamga qo'shimcha tarzda, rasmiy

idoralarga borishga imyanadigan xotin-qizlarning yoniga o'zimiz borgan holda muammolarni hal etishga harakat qilayotirmiz.

Viloyat hokimi o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Zebo Saidova mehmonlarga viloyatda oila va xotin-qizlar himoyasi, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot berarkan, Turkiyadagi muhojir o'zbekistonlik ayollar haqida ham o'z tashvishlarini bildirdi.

- Albatta, tashvishingiz o'rinli, - deya savolga javob berdi Sevim Zehra Kayya. - Tabiiyki, tashkilotimiz Turkiyada istiqomat qiladigan barcha xotin-qizlarga yordam ko'rsatadi. Agar murojaat bilan chiqsa, o'zbekistonlik ayollar ham bundan mustasno emas. Hozircha muhojirlar orasidagi suriyalik xotin-qizlar ko'p ko'mak so'raydi.

Uchrashuv yakunida ikki mamlakatning xotin-qizlar masalalari bo'yicha mas'ullari o'zaro tajriba almashish va faoliyat bilan yaqindan tanishish uchun keng, kattaroq doirada anjuman o'tkazish taklifini bildirishdi.

Gulruh MO'MINOVA.

Viloyat Matbuot uyida kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i Temur Mahmudov ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash, mahallabay ishlash hamda mehnat qonunchiligiga rioya etish borasida viloyatda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Ta'kidlanishicha, bugungi kunda viloyatda ish bilan band bo'lganlar soni 1 million 581,4 ming nafarni tashkil etadi. Joriy yilda 35 ming 663 oilani kambag'allikdan chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, 10 oyda 31 ming 736 oilaga amaliy yordam ko'rsatildi va 26 ming 780 oila kambag'allik reestrindan chiqarildi. Yil yakuniga qadar yana 4700 oila ushbu reestrindan chiqariladi.

Viloyatda 36 mingta bo'sh ish o'rnini bor, yil yakunigacha ishsizlik 4,5 foizga tushiriladi



- Prezident qarorida belgilab berilgan bandlik dasturining ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatda 320 ming nafar aholini ish band qilish rejalashtirilgan, - deydi T.Mahmudov. - Joriy yilning to'qqiz oyida 294,7 ming nafar ishsiz aholining bandligi ta'minlanib, 37,4 ming nafar fuqaroning ishga joylashishiga ko'maklashildi. Natijada ishsizlik

darajasi 5,4 foizdan 4,8 foizga qisqardi. Hozirda viloyatda 80,6 ming nafar ishsiz bor va shu bilan birga, 13357 ta korxona va tashkilotda 36033 ta bo'sh ish o'rnini mavjud. Yil yakuniga qadar yana 360 mingta ish o'rnini yaratib, ishsizlik ko'rsatkichini 4,5 foizga tushirish rejalashtirilgan.

Matbuot anjumanida qayd etilishicha, joriy yilning yanvar-

oktabr oylarida Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan 781 korxonada o'rganishlar o'tkazilib, 740 nafar ish beruvchiga nisbatan 1 milliard 684 million so'mlik ma'muriy jarima qo'llanilgan hamda 54 nafar fuqaroning 10 milliard 508 million so'm ish haqi undirilishi uchun sudlarga murojaat qilingan.

F.RO'ZIBOYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TANLOVDA QATNASHING!

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI QUYIDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA BO'SH LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

“KOMPYUTER INJINIRINGI” FAKULTETI BO'YICHA:

“Axborot texnologiyalari” kafedrası:

- dotsent – 1 o'rin;

- assistent – 1 o'rin.

“Kompyuter tizimlari” kafedrası:

- dotsent – 1 o'rin;

- assistent – 1 o'rin.

“Tabiiy fanlar” kafedrası:

- dotsent – 1 o'rin.

“Dasturiy injiniring” kafedrası:

- assistent – 1 o'rin.

“Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrası:

- assistent – 1 o'rin.

“TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB TA'LIMI”

FAKULTETI BO'YICHA:

“Raqamli va ta'lim texnologiyalari” kafedrası:

- dotsent - 1 o'rin.

“Telekommunikatsiya injiniringi”

kafedrası:

- assistent – 1 o'rin.

“Axborot xavfsizligi” kafedrası:

- assistent – 1 o'rin.

“Tillar” kafedrası:

- katta o'qituvchi – 1 o'rin.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- filial direktori nomiga ariza;

- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqa;

- oliy ma'lumot, ilmiy daraja haqidagi diplomlarning nusxalari;

- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;

- ilmiy va uslubiy ishlarning ro'yxati.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi, 2-uy.

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Ravshanov Nasiriddinga (2018-yil 16-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Nasriyev Melika (2004-yil 13-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Bagirov Isoga (2023-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta shahar mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasida marhum Azimov

Baxron Xamrakulovichga (2025-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 50/34.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Ishankulov Muxsinga (2025-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Annayeva Feruza Burxonovnaga (2019-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani “Salovot” MFY.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriylovna notarial idorasida marhum Ikromov Izatullo Fayzullayevichga (2021-yil 8-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriylovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Guliyamov Shuxrat Sherovichga (2025-yil 11-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

BEKOR QILINADI
Samarqand shahridagi “SAM QORASUV PISHIRIQLARI” xususiy korxonasi (STIR: 308974167) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

“Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalarini tahririyati jamoasi tahririyat xodimi O'ktam Xudoyberdiyevga onasi **Ra'no XUDOYBERDIYEVA**ning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Vatanimiz bayrog‘i haqida nimalarni bilasiz, uning jahonda tutgan o‘rni haqida-chi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

VATANIMIZ BAYROG‘I DUNYONING ENG BALAND CHO‘QQI VA MINORALARIDA

Dunyoning 372-kosmonavti, Rossiyaning sakson sakkizinchi va birinchi o‘zbek kosmonavti Solijon Sharipov 1998-yilning 23-yanvaridan 31-yanvarigacha kosmosga ilk parvozi davomida O‘zbekiston Davlat bayrog‘ini Shimoliy qutbga o‘rnatdi. U O‘zbekiston Respublikasining «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

2019-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklariga tashrifi, shuningdek, 2020-yil 1-sentabrda O‘zbekiston Mustaqilligi kuni munosabati bilan dunyodagi eng baland bino — Burj Khalifa O‘zbekiston bayrog‘i ranglari bilan yoritildi.

O‘zbekistonlik alpinist Sergey Denisenko 2021-yil 1-iyun kuni Everest (Jomolungma) cho‘qqisiga (8848 metr balandlikka) chiqqanda, O‘zbekiston bayrog‘i va Prezident Shavkat Mirziyoyev suratini ko‘tardi. Bu Nepal tomonidan o‘zbekistonlik alpinistning birinchi marta Everest cho‘qqisiga chiqishi edi. Keyinroq Prezident Shavkat Mirziyoyev Everestni zabt etgan alpinistni “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni va avtomobili bilan mukofotlagan.

1-sentabr — O‘zbekiston Mustaqilligi kuni Hindistonning mashhur me‘moriy yodgorliklaridan biri, ya‘ni tarixda ilk bor g‘ishtdan qurilgan dunyodagi eng baland minora Dehliidagi Qutb Minor mamlakatimiz bayrog‘i ranglari bilan yoritildi. Bu hind xalqining o‘zbek xalqiga bo‘lgan hurmat va do‘stligi ramzi, shuningdek, O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligiga o‘ziga xos bayram tuhfasiga bo‘ladi.

YUNESKO — BMTning ta‘lim, madaniyat va fan masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti. O‘zbekiston YUNESKOga 1993-yil 26-oktabrda mustaqil davlat sifatida a‘zo bo‘lgan va bu tashkilotning har bir sohadaqi ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Shu sanadan boshlab tashkilotning Parijida, Fontenua maydonida joylashgan shtab-kvartirasi oldida O‘zbekiston bayrog‘i sarbaland



turibdi. Yaqinda Samarqandda o‘tkazilgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasida o‘tkazilgan tadbirlarda 200 ga yaqin davlat vakillari qarshisida davlatimiz bayrog‘i yana baland ko‘tarildi.

Qashqadaryoda O‘zbekistondagi eng baland cho‘qqi — «Hazrati Sulton»ga yurtimiz bayrog‘i o‘rnatilgan. «Hazrati Sulton» cho‘qqisining balandligi 4643 metrni tashkil etadi. 2021-yilning 13-yanvar kuni Farg‘ona shahrida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan bayram tadbiri o‘tkazilgan. Unda rekord darajadagi - 1 ming 100 kvadrat metr bo‘lgan bayrog‘ harbiy askarlar ko‘magida keng yoyilgan.

34 yildirki, davlatimiz bayrog‘i turli bayram tantanalarida, xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar hamda nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning kuch-qudrati, sha‘ni va mustaqilligining ifodasi sifatida hilpiramoqda. Dunyo mamlakatlaridagi elchixonalarimiz binolarida, xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida ham bayrog‘imiz davlatimizning ramzi sifatida sarbaland turibdi. Chet ellarda hilpirab turgan bayrog‘imizga ko‘zimiz tushganda, yuragimizda cheksiz faxr tuyg‘usi uyg‘onadi, ruhimiz ko‘tariladi. Zero, bayrog‘imiz timsolida dunyoning qaysi nuqtasi bo‘lmasin, O‘zbekiston degan muqaddas Vatanimiz, bizning himoyachimiz va suvanchig‘imiz borligini his qilamiz.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV tayyorladi.

O‘zbekiston azaldan ilm-ma‘rifat, madaniyat va ma‘naviyat o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Bu muqaddas zaminda dunyo ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan, dinimizning eng zabardast ulamolari, faylasuf va muhaddislari yetishib chiqqan.

Jumladan, Samarqand nafaqat yurtimizning, balki butun islom olamining ma‘naviy markazlaridan biri hisoblangan. Bu haqda buyuk sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida shunday yozgan: “Samarqand eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri va mutadayyin (shariatli, dinli va diyonatli) eldur. Hazrati risolat (Muhammad alayhissalom) zamonidan beri, ul miqdor aymmai islomkim (islom imomlarikim), Movaroun-nahrda paydo bo‘lubdir, hech viloyatdin ma‘lum emaskim, muncha paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay”.

Darhaqiqat, Bobur Mirzo ming karra haqdir. Chunki Samarqand zaminida Imom Buxoriy, Doromiy, Moturidiy, Marg‘inoniy, Rastug‘foni, Abu Laysiy, Ali Sug‘diy, Nasafiy, Pazdaviy, Savg‘oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A‘zam Dahbediy kabi allomalar ilm va ma‘rifatning cho‘qqisida turgan. Birgina «Chokardiza» qabristonida Islom olamida muhim o‘rin egallagan to‘rt mingdan ziyod olimu muhaddislar dafn etilgani bu maskan musulmon olamida eng tabarruk qabristonlardan biri bo‘lgani ko‘rsatadi. Qabristonga IX asrdan boshlab dafn qilish boshlangan bo‘lib, 2000 yilda bu yerdan kalom ilmining asoschisi, buyuk mutafakkir Imom Moturidiy qabri aniqlangan.

Bu yil yurtimizda Imom Moturidiy taval-

Samarqandda buyuk allomalar merosi tiklanmoqda

ludining 1155 yilligi keng nishonlanmoqda. Davlatimiz rahbarining bu haqdagi qarori bilan Samarqand shahridagi Abu Mansur Moturidiy majmuasida qurilish-obodonlashtirish ishlari hamda ulug‘ alloma va ulomalar merosini o‘rganish maqsadida “Chokardiza” qabristoni hududida arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Samarqand arxeologiya instituti olimlari tomonidan olib borilayotgan qazishma ishlari davomida buyuk faqih, islom huquqshunosligining mukammal asari hisoblangan “Hidoya” kitobi muallifi Burhoniddin Marg‘inoniy dafn etilgan joy aniqlandi. Qabr joyi tarixiy manbalar asosida 3x3 metr anqlikda topildi. Endi alloma nomini abadiylashtirish maqsadida bu yerda maqbara quriladi. Shu bilan birga, alloma qalamiga mansub “Hidoya” asarining eng qadimiy nusxalari ham chop etishga tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, ushbu qabristondan buyuk allomalar Imom Abulqosim al-Hakim, Imom Kindiy va Imom Nasafiy, Imom Sammosiy, Amir Temurning Mashhaddan keltirgan Sayidlar dahmasi va dafn etilgan joylari aniqlanib, ularni qayta tiklash ishlari amalga oshirilmoqda.

Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasida esa Naqshbandiya tariqatining rahnamosi va nazariyotchilaridan biri Maxdumi A‘zam Dahbediy xonaqohida yirik qurilish-ta‘mirlash va arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixchi-manbashunos olimlar tomonidan mashhur murshid va



shoir Fayziy-Namangoniyning dahmasi, Abul Barakat Muhammad Amin-Piri Dastgiri Dahbediy (bu zot Buxoro podshohi Amir Haydarning piri edi) dafn etilgan joy, A‘liya-Naqshbandiya tariqatining mashhur murshidlari Xalifa Muhammad Siddiq, Xalifa Abdusattor, Xalifa Mallaxojalarning ham qabr joylari topilib, obod qilinmoqda. Shuningdek, Dahbed xonaqohi to‘g‘risidagi qadimiy asarlar nusxalari Hindiston, Pokiston va Saudiya Arabistoni arxivlaridan topilib, chop etishga tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, Toyloq tumanida muhaddislar sultoni, Imom Buxoriyning ustози bo‘lgan buyuk alloma Imom Doromiy qabri, xonaqohlari, masjid va madrasalari ham tiklanmoqda.

Samarqandda amalga oshirilayotgan bu ishlar qadriyatlarimiz, muqaddas qadamlarimiz, ota-bobolarimiz qoldirgan bebaho meros, ma‘naviyat va ilm maskanlarining tiklanayotgani millatimiz g‘ururi va kelajak avlod uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi va yurtimiz tarixiga bo‘lgan muhabbatni yanada kuchaytiradi.

Komilxon KATTAYEV,
tarixchi-manbashunos.

Afruza Hamdamova xalqarogrossmeyster maqomiga erishdi

Samarqandlik shaxmatchi Afruza Hamdamova xalqaro maydonda erishgan yuksak natijalari va barqaror o‘yini evaziga xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tomonidan ayollar o‘rtasida xalqaro grossmeyster (WGM) unvoniga sazovor bo‘ldi.

Mazkur unvon Afruzaning yillar davomida olib borayotgan tinimsiz mehnati, fidoyiligi va O‘zbekiston shaxmat maktabining samarali tizimi natijasidir. Ma‘lumot uchun, Afruza “Kelajak bunyodkori” medali va “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti sohibasi, shaxmat bo‘yicha xalqaro turnirlar g‘olibi va sovrindori, yoshlar o‘rtasida ikki karra jahon chempioni, xotin-qizlar o‘rtasida samarqandlik ilk grossmeyster bo‘lgan.

Sarvinoz UYTO‘LSINOVA.

Bugungi kunda yigirmaga yaqin xorijiy davlatlarning nufuzli oliy o‘quv yurtlari va ko‘plab maktablarida o‘zbek tilining o‘rgatilishi, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilarning safi yil sayin kengayib borayotgani, xalqaro hamjamiyatda ona tilimizga bo‘lgan qiziqish va e‘tibor kuchayayotganligining yana bir isbotidir.

2020-yil 23-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk bor ona tilimiz dunyoning eng nufuzli minbaridan yangrardi va bu an‘ana davom ettirilib, shu yilning 23-sentabrdagi 80-sessiyada ham yurtboshimiz ona tilimizda nutq so‘zladi. Bu albatta, barchamiz uchun faxr tuyg‘usini berdi, shu bilan birga ona tilimizni asrab-avaylash, uning nufuzini oshirish, go‘zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirish, dunyoga tanitishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz zarurligini anglatadi.

O‘zbekiston bilan qaysi mamlakatlarning yaqin siyosiy, iqtisodiy, diplomatik va strategik munosabatlari bo‘lsa, o‘sha davlatlarda tilimizni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilayotgani quvonarli hol. Qolaversa, atrofimizdagi qo‘shni davlatlarda ham o‘zbek tili keng qo‘llaniladi. Hatto Germaniya, AQShgacha bo‘lgan okean orti davlatlarida o‘zbek tilini o‘rganish va keng targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘pgina ishlar olib borilmoqda. Masalan, Germaniya va O‘zbekiston davlatlari bir-biridan uzoq masofada joylashgan bo‘lsa-da, u yerda o‘zbek xalqi va uning madaniyati, tarixi, tili va adabiyotini o‘rganish ancha oldin boshlab yuborilgan. Amerika Qo‘shma Shtatlarida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjima qilinishi mamnuniyat bilan kutib olindi. Demak, davlatlararo manfaatlar ularning tillarini o‘rganishni ham taqozo etadi.

Dunyodagi top universitetlardan biri bo‘lgan Oks-

“O‘Z TILIGA SADOQAT – BU VATANIY ISHDIR!”

fordning Osiyo va Yaqin Sharq tadqiqotlari fakultetida o‘zbek va eski o‘zbek tillari o‘rganilishi haqidagi xabar barchamizni birdek xursand qildi. Shuningdek, Bodlian kutubxonasidagi Mirzo Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Husayn Boyqaroning “Devoni Husayniy”, Boburiylar davriga oid miniatyuralar va boshqa ko‘plab nodir kitoblar saqlanayotganligi ajdodlarimiz qoldirgan noyob asarlarning dunyo tamaddunida o‘rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

Bugungi vazifamiz ushbu asarlarni o‘rganish, tilimizning ochilmas qirralarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va uni to‘la-to‘liq kelajak avlodlarga yetkazish, shu bilan birga, tilimizni kompyuter tiliga aylantirish va dunyo tillari qatoriga chiqarishdan iborat. Buning uchun birinchi navbatda o‘zbek tilining milliy korpusini mukammal tarzda ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

So‘nggi yillarda tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralayotgan korpus lingvistikasi sohasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Buning natijasi sifatida amalga oshirilayotgan lingvistik korpus yo‘nalishidagi tadqiqotlar tilimizning jahon miqyosiga chiqish imkoniyatini beradi. Natijada o‘zbek tiliga zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida ishlov berilishiga erishish, buning uchun lingvistik korpuslar, mualliflik korpuslari, elektron lug‘atlar, elektron ma‘rifiy manbalarga boshlang‘ich avtomatik ishlov berish va ularning lingvistik hamda dasturiy ta‘minotini yaratish o‘zbek tilshunosligi oldidagi dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu vazifalarning bir qismi sifatida biz mualliflik korpusini yaratish ustida ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirdik. Buning natijasida “Qur‘oni Karim ma‘nolari tarjimasi va tafsirining til korpusi” (<https://tafsiri-irfon.uz/ru/>) ishga tushirildi.

Shu yilning 20-oktabr kuni davlatimiz rahbarining “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi. Unga ko‘ra, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanish, ta‘lim tashkilotlarida o‘zbek tilini o‘qitish tizimini takomillashtirish, uning sofligini saqlash va muntazam boyitib borish, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash, xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilangan.

Qarorda 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash, 2026-yil 1-yanvardan viloyat, tuman (shahar) hokimliklarida rahbarning ma‘naviyat va davlat tili bo‘yicha maslahatchisi lavozimini joriy etish, o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha darsliklarning yangi avlodini yaratish, pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqish, o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha bolalar uchun rasmiy lug‘at kitoblar, video va audio mahsulotlar tayyorlash hamda 2026-yil 1-dekabr qadar “Ona tili. Qomus” nomli kitobni nashrga tayyorlab, chop etish ko‘zda tutilgan.

Davlat tilining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash borasida ham bir qancha vazifalar belgilangan. Masalan, 2026-yil 1-dekabr qadar yangi qabul qilinayotgan atamalar bo‘yicha jamoatchilik muhokamasida bildirilgan taklif, fikr va tavsiyalarni qayd etib boruvchi, tasdiqlangan yangi so‘z va atamalarni o‘zida aks ettiradigan elektron reyestrni yurituvchi, o‘zbek tilida chop



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 786 nusxada chop etildi. Buyurtma 534. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

G.MO‘MINOVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefonning orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda